



“SHIMOLIY MINTAQALARDA QISHLOQ XOJALIGINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI VA ULARNING INNOVATSION ECHIMLARI” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



UO‘T:633.652.

MOSH O‘SIMLIGIDA QURUQ MASSA TO‘PLANISHIGA URUG‘ EKISH MUDDATLARI HAMDA EKISH ME‘YORLARINI TA‘SIRI.

Xoshimov Ibroxim Nabievich, q.x.f.d., professor

Rahmonov Shuxratjon Husanboevich, q.x.f.f.d.,

Xudoyberdiyeva Shaxnoza Davlatovna

Don va dukkakli ekinlar ilmiy tadqiqot instituti.

(E-mail): ddeiti-19@mail.ru.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19239209>

Annotatsiya: Ushbu maqolada mosh o‘simligida quruq massa to‘plashga urug‘ ekish muddatlari va ekish sxemasining ta‘siri atroflicha keng o‘rganildi. Tadqiqotlar Don va dukkakli ekinlar ilmiy tadqiqot institutining Farg‘ona ilmiy tajriba stansiyasida 2022-yilda olib borilgan tajribalar asosida, 3 urug‘ ekish muddatlari va 6 ta ekish sxemasi bo‘yicha jami 18 variantda sinovdan o‘tkazildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, birinchi muddatda, ayniqsa 76x15-1 sxemada ekilgan variantda 1 tup o‘simlikda quruq massa miqdori barcha rivojlanish fazalarida ortib borib, pishish fazasiga kelib eng yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘ldi. Ushbu variant ikkinchi va uchinchi muddatlarda 76x15-1 sxemada ekilgan variantlarga nisbatan pishish fazasida 1,83-5,34 g.ga yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘ldi

Kalit so‘zlar: Mosh, ekish muddati, ekish me‘yori, qator oralig‘i, quruq massa, biomassa, fenologik rivojlanish.

Аннотация: В данной статье исследовано влияние сроков посева и схемы посева на накопление сухой массы у растения маш. Исследования проводились в 2022 году на базе Центральной опытной станции Ферганского научно-исследовательского института зерновых и бобовых культур. Опыт включал 3 срока посева и 6 схем посева, всего 18 вариантов. Результаты показали, что при первом сроке посева, особенно при схеме 76x15-1, сухая масса на 1 растении увеличивалась на всех фазах развития и достигала максимальных значений в фазе созревания. Этот вариант по сравнению с посевом того же сорта в рамках второго и третьего сроков по схеме 76x15-1 показал преимущество в фазе созревания на 1,83–5,34 г.

Ключевые слова: маш, сроки посева, норма высева, междурядья, сухая масса, биомасса, фенологическое развитие.

Abstract: This study investigated the effect of sowing dates and planting schemes on dry matter accumulation in mung bean (*Vigna radiata*). The experiments were conducted in 2022 at the Central Experimental Station of the Fergana Research Institute of Grain and Legume Crops. The trial included three sowing dates and six planting schemes, totaling 18 variants. Results indicated that for the first sowing date, particularly under the 76x15-1 scheme, dry matter per plant increased across all developmental stages, reaching the highest values at the maturity stage. This variant showed an advantage of 1,83–5.34 g in the maturity stage compared to the same scheme sown in the second and third dates.

Keywords: mung bean, sowing date, seeding rate, row spacing, dry matter, biomass, phenological development.

Kirish. Bugungi kunda qishloq xo‘jaligida aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlash, yer resurslaridan samarali foydalanish hamda ekinlar hosildorligini oshirish eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shu jihatdan dukkakli don ekinlari, xususan mosh o‘simligi



“SHIMOLIY MINTAQALARDA QISHLOQ XOJALIGINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI VA ULARNING INNOVATSION ECHIMLARI” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



katta ahamiyatga ega ekin boʻlib, u yuqori oziqaviy qiymati, oqsilga boy tarkibi, qisqa vegetatsiya davri va tuproqni azot bilan boyitish xususiyati bilan ajralib turadi.

Adabiyotlar sharxi. А.П. Пилов [4;61-b] taʼkidlashicha, mosh ekinini koʻk massa uchun ekish samarali boʻlib, mosh ekinining poyalaridan koʻkat oʻgʻit sifatida foydalanishni taʼvsiya etgan.

M.A.Sattarov, I.T.Mirzaeva [5;27-32-b]lar taʼkidlashicha, mosh oʻsimligi yuqori proteinli ekin boʻlib, uning donlari birinchi navbatda oziq-ovqat maqsadida ishlatiladi. Moshning pichanidan maʼlum darajada chorva xayvonlari uchun yem-xashak ekini sifatida, pichan, silos va somon sifatida foydalaniladi.

N.Jumaev va E.Shermatovlar [6;57-59-b] tomonidan bergan maʼlumotlariga koʻra, Qoraqalpogʻiston sharoitida moshni takroriy ekin sifatida boshqoqli don ekinlardan kegin angʻizda yetishtirilganda, doni va koʻk massasidagi oqsil miqdori sezilarli darajada oshadi.

Tadqiqot metodologiyasi va uslubi. Tadqiqotlar 2022 yilda Don va dukkakli ekinlar ilmiy tadqiqot institutining Fargʻona ilmiy tajriba stansiyasi markaziy tajriba maydonida moshning Baraka navida olib borildi. Tajriba uch xil ekish muddatida (10-15.06; 20-25.06; 1-5.07) hamda 60x5-1, 60x10-1, 60x15-1, 76x5-1, 76x10-1 va 76x15-1 ekish sxemalarida oʻrganildi. Tadqiqot 18 variant va 4 takrorlanishdan iborat boʻlib, xar bir qaytariq maydoni 240 m², hisoblash maydonchasi esa 120 m² ni tashkil etdi. Fenologik kuzatuvlar “Dala tajribalarini oʻtkazish uslublari” hamda «Методика Государственного сортоиспытания сельскохозяйственных культур» asosida olib borildi, natijalar esa «Методика полевого опыта» uslubi boʻyicha statistik tahlil qilindi [1,2,3].

Tatqiqot natijalari. Olib borilgan tadqiqotlar shuni koʻrsatdiki, moshning quruq massa toʻplashi ekish muddati va ekish sxemasiga oʻz taʼsirini koʻrsatdi. Moshda 1 tup oʻsimlikda quruq massa toʻplanishi eng yuqori koʻrsatkichga birinchi muddatda ekilgan variantlarda kuzatildi. Birinchi muddatda ekilgan variantlar orasida eng yuqori koʻrsatkich 76x15-1 sxemada ekilgan variantda kuzatilib, shoxlanishda 8,43 g, gʻunchalashda 14,92 g, gullashda 20,51 g, dukkaklashda 37,98 g va pishish fazasida 55,43 g ni tashkil etdi. Ushbu variant shu muddatda 60x5-1 sxemada ekilgan variantga nisbatan shoxlanish fazasida 3,74 g.ga, gʻunchalashda 6,38 g.ga, gullashda 9,81 g.ga, dukkaklash va pishish fazalarida 20,82–33,29 g.ga yuqori boʻldi. Qator orasi 60x15-1 hamda 60x10-1 sxemada ekilgan variantlarga nisbatan shoxlanishda 1,15–2,59 g.ga, gʻunchalashda 1,76–4,6 g.ga, gullashda 2,32–6,44 g.ga, dukkaklashda 3,73–12,21 g.ga hamda pishish fazasida 6,40–16,77 g.ga yuqori boʻldi. Qator orasi 76x10-1 va 76x5-1 sxemada ekilgan variantlarga nisbatan esa shoxlanishda 1,29–3,17 g.ga, gʻunchalashda 2,29–5,91 g.ga, gullashda 3,21–7,75 g.ga, dukkaklashda 8,32–15,57 g.ga hamda pishish fazasida ushbu koʻrsatkich 13,65–25,08 g.ga yuqori boʻldi.

Birinchi muddat qator orasi 76x15-1 sxemada ekilgan variant ikkinchi va uchinchi muddatda 60x5-1 sxemada ekilgan variantlarga nisbatan shoxlanish fazasida 3,94–4,03 g.ga, gʻunchalashda 6,62–6,78 g.ga, gullashda 10,04–10,24 g.ga, dukkaklashda 21,34–22,09 g.ga hamda pishish fazasida 34,03–34,91 g.ga yuqori boʻldi. Qator orasi 60x10-1 sxemada ekilgan variantlarga nisbatan shoxlanishda 2,68–2,79 g.ga, gʻunchalashda 4,77–4,97 g.ga, gullashda 6,62–6,88 g.ga, dukkaklashda 11,59–13,13 g.ga hamda pishish fazasida 18,11–20,29 g.ga; 60x15-1

1-jadval.



**“SHIMOLIY MINTAQALARDA QISHLOQ XOJALIGINI
RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI VA
ULARNING INNOVATSION ECHIMLARI”
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya**



**Urug‘ ekish muddatlari va ekish me‘yorlarini moshning quruq massa to‘plashiga ta’siri,
2022-yil.**

No	Ekish muddatlar i	Ekish sxemasi	Shoxlanis h 1 tup o‘simlik vazni, g.	G‘unchalash 1 tup o‘simlik vazni, g.	Gullash 1 tup o‘simlik vazni, g.	Dukkaklash a 1 tup o‘simlik vazni, g.	Pishish 1 tup o‘simlik vazni, g.
1	10-15.06	60x5-1	4,69	8,54	10,70	17,16	22,14
2		60x10-1	5,84	10,32	14,07	25,77	38,66
3		60x15-1	7,28	13,16	18,19	34,25	49,03
4		76x5-1	5,26	9,01	12,76	22,41	30,35
5		76x10-1	7,14	12,63	17,30	29,66	41,78
6		76x15-1	8,43	14,92	20,51	37,98	55,43
7	20-25.06	60x5-1	4,49	8,30	10,47	16,64	21,40
8		60x10-1	5,75	10,15	13,89	26,39	37,32
9		60x15-1	7,16	12,90	17,92	32,63	46,73
10		76x5-1	5,16	8,81	12,54	21,51	29,27
11		76x10-1	7,08	12,41	17,05	28,65	40,19
12		76x15-1	8,32	14,70	20,19	36,76	53,60
13	1-5.07	60x5-1	4,40	8,14	10,27	15,89	20,52
14		60x10-1	5,64	9,95	13,63	24,85	35,14
15		60x15-1	7,06	12,77	17,76	31,67	45,03
16		76x5-1	5,06	8,63	12,36	20,93	28,10
17		76x10-1	6,96	12,24	16,85	27,65	38,65
18		76x15-1	8,20	14,45	18,55	34,68	50,09

sxemada ekilgan variantlarga nisbatan shoxlanishda 1,27–1,37 g.ga, g‘unchalashda 2,02–2,15 g.ga, gullashda 2,59–2,75 g.ga, dukkaklashda 5,35–6,31 g.ga hamda pishish fazasida 8,7–10,40 g.ga yuqori bo‘ldi. Qator orasi 76 sm ekilgan variantlarga nisbatan esa 76x5-1 sxemada ekilgan variantlarga nisbatan shoxlanish fazasida 3,27–3,37 g.ga, g‘unchalashda 6,11–6,29 g.ga, gullashda 7,97–8,15 g.ga, dukkaklashda 16,47–17,05 g.ga, pishish fazasida 26,16–27,33 g.ga yuqori bo‘ldi. Qator orasi 76x10-1 sxemada ekilgan variantlarga nisbatan shoxlanishda 1,35–1,47 g.ga, g‘unchalashda 2,51–2,68 g.ga, gullashda 3,46–3,66 g.ga, dukkaklashda 9,33–10,33 g.ga, pishish fazasida 15,24–16,78 g.ga hamda qator orasi 76x15-1 sxemada ekilgan variantlarga nisbatan shoxlanishda 0,11–0,23 g.ga, g‘unchalashda 0,22–0,47 g.ga, gullashda 0,32–1,96 g.ga, dukkaklashda 1,22–3,30 g.ga hamda pishish fazasida 1,83–5,34 g.ga yuqori bo‘lganligi aniqlandi.

Xulosa. Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, moshning quruq massa to‘plashiga ekish muddatlari va ekish sxemalari sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Birinchi muddatda qator orasi 76x15-1 sxemada ekilgan variant, barcha rivojlanish fazalarida 1 tup o‘simlikda quruq massa miqdori eng yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lib, shoxlanishda 8,43 g, g‘unchalashda 14,92 g, gullashda 20,51 g, dukkaklashda 37,98 g va pishish fazasida 55,43 g. ga to‘g‘ri kelib, ushbu variant ikkinchi muddatdagi 76x15-1 sxemada ekilgan variantga nisbatan shoxlanishda 0,11 g, g‘unchalashda 0,22 g, gullashda 0,32 g, dukkaklashda 1,22 g va pishishda 1,83 g.ga, uchinchi muddatdagi 76x15-1



**“SHIMOLIY MINTAQALARDA QISHLOQ XOJALIGINI
RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI VA
ULARNING INNOVATSION ECHIMLARI”
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya**



sxemada ekilgan variantga nisbatan esa, shoxlanishda 0,23 g, g‘unchalashda 0,47 g, gullashda 1,96 g, dukkaklashda 3,30 g va pishishda 5,34 g.ga yuqori bo‘ldi.

Fouddalanilgan adabiuotlar ro‘uxati.

1. Dala tajribalarini o‘tkazish uslublari. O‘zRITI, Toshkent 2007 g. 33-61 s.
2. 2.Методика Государственного сортоиспытания сельскохозяйственных культур. Выпуск второй. Зерновые, крупяные, зернобобовые, кукуруза и кормовые культуры. Москва - 1989. Стр.30-38.
3. Б.А.Доспехов Методика полевого опыта (с основами статической обработки результатов исследований). – 5-е изд., доп. и перераб. –М.: Агропромиздат, 1985. 253-255 с.
4. Пилов А.П. Loviya va mosh. Toshkent. Monografiya.1978-y. 61-b.
5. Sattarov M.A., Mirzayeva I.T. O‘zbekistonda mosh seleksiyasi va yetishtirish istiqbollari “Global iqlim o‘zgarishlari sharoitida sholi va dukkakli don ekinlari yetishtirishning muammolari va yutuqlari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman maqolalar to‘plami. 27-32-b. Toshkent-2025.
6. Jumayev N., Shermatov E. Almashlab ekish majmuidagi ekinlarning g‘o‘za hosildorligiga ta’siri.//Janubiy O‘zbekistonda dexqonchilik samaradorligini oshirish texnologiyasi.- QMII.Agronomiya kafedrasining birinchi ilmiy ishlar to‘plami. –Qarshi.2001.B.57-59.